

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2023-yil "3" *avgust* da
554 - son bilan
"RO'YXATGA OLINGAN"

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvining
2023-yil "3" *avgust* da
184 - sonli qaroriga
ILOVA



"O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida firibgarlikka qarshi kurashish Tartibi

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Tartib "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (AV ro'yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan.

2. Ushbu "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida firibgarlikka qarshi kurashish Tartibi (keyingi o'rinlarda - Tartib) "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda - Bank) tizimida firibgarlik holatlarini o'rganish, risklarini baholash hamda kelgusida ushbu holatlarni yuzaga kelish xavfini kamaytirish bo'yicha qilinadigan ishlar Tartibini belgilaydi. Shuningdek, Bankda firibgarlikka qarshi kurashish maqsadida ichki nazoratni tashkil etish hamda firibgarlikning oldini olishga qaratilgan vazifalar batafsil bayon etilgan.

3. Ushbu Tartibda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

iABS- Bank operatsiyalarini avtomatlashtirilgan tizimda amalga oshirish va hisobotlarni shakllantirish imkonini yaratuvchi operatsion tizim;

masofaviy Bank xizmatlari / MBX- bank xizmatlari, Bankka tashrif buyurmasdan masofaviy dasturlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar;

Bankning axborot tizimlari- Bankning axborot tizimi - bu Bankni boshqarishning barcha vositalari va axborot texnologiyalari hamda Bankda qo'llaniladigan Bank xizmatlarini ko'rsatish, amalga oshirilayotgan subyektlarni avtomatlashtirish texnologiyalari, iABS, CRM, ELMA-Bpm va boshqalar;

Joyda- Omonat, kredit va Bank kartalari orqali to'lovlarni (va boshqalar) amalga oshirish mobil ilovasi;

redmine- Aloqa markaziga kelib tushgan murojaatlarni qayd etish tizimi;

kontragent- Bank bilan hamkorlik shartnomasi/xizmat ko'rsatish/olish yoki tovarlarni sotish/sotib olish to'g'risida shartnoma tuzgan yoki tuzmoqchi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek aksiyadorlar, investorlar, O'zbekiston Respublikasining nazorat qiluvchi organlari;

firibgarlik- aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish, zarar yetkazish, xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, shartnoma majburiyatlarini qasddan bajarmaslik yo'li bilan birovning mulkini o'g'irlash yoki birovning mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish;

firibgarlikka qarshi kurashish- Bankning firibgarlikka sabab bo'ladigan yoki firibgarlikni rag'batlantiruvchi sabablarni aniqlash, bartaraf etish yoki ularning oldini olishga, shuningdek, firibgarlik xatti-harakatlarini sodir etgan shaxslarni jazolash choralari qo'llashga qaratilgan faoliyati;

tarkibiy bo'linma - Bank departamentlari, boshqarmalar, bo'limlar, xizmatlar, BXM, BXOlar.

4. Bankning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, ushbu Tartib talablarini bajarish, shuningdek, firibgarlik faktlari to'g'risida Bankni o'z vaqtida va to'liq xabardor qilish uchun shaxsan javobgardirlar.

5. Mazkur Tartibga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar yoki Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq Komplayens-nazorat departamenti, Risk menejment departamenti hamda Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti takliflariga asosan Bank boshqaruvining qarori bilan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

6. Ushbu Tartib Bank faoliyatining barcha turlariga taalluqlidir va Bankning barcha xodimlari tomonidan amal qilinishi va bajarilishi majburiydir.

7. Mazkur Tartib quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan:

firibgarlikka qarshi kurashish qoidalarining amalga oshirilishi va yuritilishini ta'minlash;

firibgarlikning oldini olishning samarali choralarini qo'llash;

firibgarlik holatlari sodir bo'lganda salbiy oqibatlarni kamaytirish;

Bankning obro'siga putur yetkazadigan risklardan himoya qilish va aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash;

firibgarlikka qarshi kurashish uchun samarali ichki nazorat tizimini yaratish;

Bank faoliyati davomida ichki va tashqi firibgarlik xavfini o'z vaqtida aniqlash;

firibgarlik faoliyatining oldini olish, ularga chek qo'yish va aniqlash hamda amalga oshirilgan firibgarlik xavfining salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning to'liqligini ta'minlash;

samarali aloqa kanallarini joriy etish orqali firibgarlik holatlari (*keyslari*) to'g'risida ma'lumotlarni olish;

Bank xodimlarining firibgarlikka qarshi kurashish sohasida zarur bilim va ko'nikmalarini oshirish.

II. FIRIBGARLIK TO'G'RISIDAGI MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH

8. Fuqarolar yoki Bank xodimlarining firibgarlik harakatlariga oid murojaatlari quyidagi aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin:

Bankning rasmiy veb sayti (<https://sqb.uz/uz/compliance-hotline/>);

Bankning ishonch telefon raqami orqali (0-800-120-8888);

Bankning telegram boti (@sqbantikor_bot);

Bankka og'zaki yoki yozma (shaxsan) murojaat qilish;

Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (*"Facebook" dagi rasmiy sahifasi*) aloqa-markaz, elektron murojaat va mazkur Tartibda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma'lumotlarni qabul qilgan tegishli tarkibiy bo'linmalar xabarni Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentiga yetkazadi.

9. Ushbu Tartibning 8-bandida ko'rsatilganidek, aloqa kanallari orqali firibgarlik xatti-harakatlari to'g'risida murojaatlarni taqdim etish imkoniyati va bunday aloqa kanallari Bankning Axborot xizmati tomonidan Bankning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi asosiy sahifalarida joylashtiriladi.

10. Bankning Axborot xizmati aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankning rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, Bank xodimlariga yuboriladigan davriy elektron pochta xabarlar va o'quv materiallarida, Bank binosida joylashgan tematik plakatlar va hokazolarda muntazam ravishda joylashtirishni ta'minlaydi.

11. Komplayens-nazorat departamenti ushbu Tartibning 8-bandida ko'rsatilgan aloqa kanallari, shuningdek Redmine tizimi orqali firibgarlik harakatlari to'g'risida fuqarolar va Bank xodimlarining murojaatlarini qabul qiluvchi hisoblanadi.

12. Fuqarolardan yoki Bank xodimlaridan firibgarlik faoliyati to'g'risida boshqa aloqa kanallari orqali murojaat tushgan taqdirda, murojaatlarni qabul qilganlar shu kunning o'zidayoq bunday murojaatlarni Komplayens-nazorat departamentiga yetkazishlari shart.

13. Murojaatlar Komplayens-nazorat departamenti mas'ul xodimi tomonidan Bankdagi firibgarlik faoliyati to'g'risidagi murojaatlarni qabul qilish reyestriga (Tartibning 2-ilovasi) kelib tushganidan keyin 1 (bir) soat ichida ro'yxatga olinadi, Komplayens-nazorat departamenti direktori kelib tushgan murojaatlarni monitoring qilish va ko'rib chiqish uchun mas'ul xodimlarni tayinlaydi.

14. Nomaqbul xatti-harakatlar yoki firibgarlik holatlari to'g'risidagi xabarlar anonim bo'lishi ham mumkin.

15. Firibgarlik faktlari bo'yicha anonim murojaatlar Komplayens-nazorat departamenti mas'ul xodimi tomonidan direktor bilan kelishilgan holda ko'rib chiqiladi.

16. Agar murojaat firibgarlik masalalari bilan bog'liq bo'lmasa, u bir ish kuni ichida murojaatda ko'rsatilgan masalani hal etish vakolatiga kiruvchi Bankning tegishli tarkibiy bo'linmasiga yuborilishi kerak.

17. Komplayens-nazorat departamenti mas'ul xodimi kiruvchi arizalarni tahlil qiladi, shu bilan birga to'liq ma'lumotni va arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarni, masalan, fotosuratlar, hujjatlar, audio va video yozuvlarni olish maqsadida murojaatda ko'rsatilgan aloqa vositalaridan foydalangan holda ariza yuborgan Bank xodimi yoki fuqaro bilan bog'lanishi mumkin.

18. Shu bilan birga, Komplayens-nazorat departamenti xodimi murojaatni taqdim etgan shaxsning maxfiyligini ta'minlashi lozim.

19. Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida Komplayens-nazorat departamenti mas'ul xodimi firibgarlik harakati mavjudligi yoki yo'qligini tasdiqlash uchun o'rganish o'tkazishi va lozim bo'lganda ushbu Tartibning 63-64-bandlariga muvofiq hisobotlarni taqdim etishi kerak.

20. Murojaatni ko'rib chiqish, o'rganish, javob tayyorlash va taqdim etish bunday murojaat Bankka kelib tushgan kundan boshlab bir oy muddatda amalga oshirilishi kerak. Ko'rib chiqish muddati Komplayens-nazorat departamenti direktori tomonidan bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

21. Qabul qilingan so'rovlar bo'yicha barcha materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar, shu jumladan qabul qilingan qarorlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatgacha Komplayens-nazorat departamentida saqlanishi kerak.

22. Har qanday murojaat egasi, shu jumladan noqonuniy xatti-harakatlar yoki firibgarlik holatlari bo'yicha ma'lumot taqdim etgan murojaatchilar qarshi ta'sirlardan himoyalalanadilar. Murojaatchi to'g'risidagi ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 46-moddasi "fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish"ga muvofiq Bank tomonidan maxfiy saqlanadi.

23. Agar xodim tomonidan firibgarlik to'g'risida ma'lumot o'rganish davomida tasdig'ini topmasa xodim ushbu ma'lumotni ataylab foyda olish, javobgarlikdan qochish va shunga o'xshash maqsadlarda bermagan bo'lsa javobgarlikka tortilmaydi.

24. Firibgarlikka qarshi kurashni Bank firibgarlik natijasida yetkazilgan zararni, shu jumladan yo'qotilgan foyda va obro'siga putur yetkazadigan riskni to'liq qoplash zarurati bilan boshqariladi.

25. O'rganish natijalariga ko'ra firibgarlik fakti tasdiqlashda aybdor shaxslarni jinoiy, ma'muriy, fuqarolik, intizomiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

26. O'rganish natijasida o'z tasdig'ini topgan firibgarlik holatlari (*insidentlar*) bo'yicha Risk menejment departamentiga ma'lumot berib boriladi.

III. FIRIBGARLIK XAVFINI BAHOLASH

27. Risk menejment departamenti aniqlangan holatlarni insidentlar bazasiga kiritishda har bir holat bo'yicha baholashni amalga oshiradi.

28. Risk menejment departamenti tomonidan insidentlar bazasiga kiritilgan holatlarni yillik tahlil qilish natijasida biznes yo'nalishlar va jarayonlarda aniqlangan eng ko'p firibgarlik sxemalari bo'yicha risklarni kamaytirish yuzasidan zarur hollarda tegishli biznes yo'nalishlarga takliflar berib boradi.

29. Shu bilan birga tashqi va ichki auditorlar, Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining hisobotlarida qayd etilgan firibgarlik faktlarini ro'yxatga oladi va tegishli tahlillarni amalga oshiradi.

30. Risk menejment departamenti tomonidan har chorakda insidentlar bazasiga kiritilgan holatlar bo'yicha Komplayens-nazorat departamentiga ma'lumotlar taqdim etib boriladi.

31. Komplayens-nazorat departamenti tahlil natijasida ushbu Tartibning 36 va 37-bandlarida ko'rsatilgan firibgarlik usullari ro'yxatini yangilaydi, bunda tashqi manbalardan olingan firibgarlikning yangi turlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham aks etishi lozim.

32. Komplayens-nazorat departamenti firibgarlikning barcha yangilangan usullari uchun nazorat vositalarining yetarliligi va samaradorligini baholaydi, zarur hollarda mavjud nazorat vositalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.

33. Risk menejment departamenti yangi Bank mahsulotlari va xizmatlari, yangi biznes jarayonlar hamda ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganda, shuningdek ularga o'zgartirishlar kiritilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholaydi. Baholash natijalari bo'yicha taklif va tavsiyalar risk egalariga taqdim qilinadi.

34. Risk menejment departamenti firibgarlik risklarini baholash natijalari bo'yicha Tavakkalchiliklarni boshqarish va Komplayens-nazorat qo'mitasiga har chorakda hisobot berib boradi.

IV. FIRIBGARLIK TURLARI VA USULLARI

35. Moliya bozoridagi firibgarlik turlari juda xilma-xil va doimiy ravishda yangilanib turadi, lekin ularning mohiyati bir xil bo'lib - turli xil firibgarlik yo'llari bilan pul ko'rinishida foyda olish.

36. Bankdagi firibgarlik faktlari bo'yicha tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, eng kamida quyidagi ichki firibgarlik usullari, shuningdek ularning oldini olish choralari hamda Bankning mas'ul tarkibiy bo'linmalari belgilangan:

	Firibgarlik usuli	Profilaktika choralari	Mas'ul tarkibiy bo'linma
1	Kreditni so'ndirishga yo'naltirilgan mablag'lar xodim tomonidan boshqa hisobvaraqlarga o'tkazilishi	kredit hisobvaraqlarining avtomatlashtirilgan monitoringi	BXO/BXM Operatsion bo'limi
2	soxta hujjatlardan foydalangan holda mavjud bo'lmagan qarzlarning nomiga kreditlarni rasmiylashtirish	kredit hisobvaraqlarini tegishli tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan birlamchi hujjatlar to'g'riligi tekshirilgandan keyin ochish	BXO/BXM Boshqaruvchi o'rinbosari, Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi
3	mijozlarning ishtirokisiz kredit rasmiylashtirilishi	Kredit rasmiylashtirishda Face ID texnologiyalaridan foydalanish	BXO/BXM Boshqaruvchi o'rinbosari, Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi
4	kredit rasmiylashtirishda, garovga qo'yishda hujjatlarni (imzo, muhr, ma'lumotlar) qalbakilashtirish	kontragentlarning hujjatlari haqiqiylikni tashqi manbalardan tekshirish	Hududiy boshqarma Kreditlarni boshqarish bo'limi BXO/BXM Boshqaruvchi o'rinbosari, Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi
5	pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi mijozning arizasini qalbakilashtirish	“O'zsanoatqurilishbank” ATBda chakana bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq barcha hujjatlarning haqiqiylik va to'g'riligi tekshirilgandan keyingina to'lov o'tkazmasini amalga oshirish.	BXO/BXM Operatsion bo'limi
6	mijozlarning hisobvaraqlaridan mijoz ruxsatisiz pul mablag'larini o'tkazish	mijoz hisobvaraqlari bilan bog'liq har qanday operatsiya faqat universal servis menejer va katta nazoratchi mavjud bo'lganda amalga oshirish shuningdek Face-ID tizimi orqali mijozni verifikatsiya qilgandan	BXO/BXM Operatsion bo'limi

		so'ng operatsiyani amalga oshirish	
7	qalbaki pul banknotalariga almashtirish, shuningdek eski va shikastlangan pul banknotalarini o'ramga solib qo'yish, sanab o'ralgan o'ramdan banknotalarni tortib olish, naqd pul mablag'larini o'zlashtirish	har yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tekshiruv o'tkazish, har chorakda bir marta, katta nazoratchi yoki kassir o'zgarganda yoki vaqtincha o'zgarganda, Bank rahbari (yoki uning o'rinbosari, unga moddiy javobgarlik yuklatilgan) almashtirilganda yoki vaqtincha almashtirilganda to'liq tekshiruv o'tkazish.	BXO/BXM boshqaruvchi o'rinbosari, Operatsion bo'limi, ishchi guruh
8	ayirboshlash operatsiyalarida valyuta kursining noto'g'ri hisoblanishi	to'satdan tekshiruvlar o'tkazish. Mijozlarga kassa oynasi yoniga kassadan naqd pul olgan shaxs qabul qilingan pul summasini kassadan chiqmasdan hujjatda ko'rsatilgan summa bilan tekshirishi shartligi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish.	BXO/BXM boshqaruvchi o'rinbosari, Operatsion bo'limi
9	hujjatlarni soxtalashtirish yo'li bilan mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'zlashtirish	kassa kvitansiyasida ko'rsatilgan imzolar va muhrlarni mijoz imzolari namunalari bilan majburiy tekshirish; mijoz hisobvaraqlari bilan bog'liq har qanday operatsiyani faqat ijrochi va nazoratchi mavjud bo'lganda amalga oshirish; Kassalarda videokuzatuv kameralarining mavjudligi va ularning ishlashini ta'minlash	Hududiy boshqarma Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish bo'limi, BXO/BXM Operatsion bo'limi
10	mijozning hisob raqamiga pul o'tkazishda hujjatlardagi summalarni kamaytirib ko'rsatish	mijoz hisobvaraqlari bilan bog'liq har qanday operatsiyani faqat ijrochi va nazoratchi mavjud bo'lganda amalga oshirish lozim; Mijozlarga xizmat ko'rsatish xonalarida (oynalarida) videokuzatuv kameralarining mavjudligi va ularning ishlashini ta'minlash	Hududiy boshqarma Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish bo'limi, BXO/BXM Operatsion bo'limi
11	uchinchi shaxslar bilan til biriktirib, mijozlarning shaxsiy	xodimlar bank sirini saqlash, ma'lumotlarning konfidensialligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek ushbu	Hududiy boshqarma Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish

	ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanish	talablarni buzganlik uchun javobgarligi to'g'risidagi O'zR va Bank ichki me'yori talablarini o'rgatish. Shuningdek, Bankda tizim joriy etilgan bo'lib, u avtomatik ravishda axborot xavfsizligi boshqarmasi xodimiga Bank xodimlari tomonidan konfidensial va/yoki shaxsiy ma'lumotlarni elektron pochta orqali yuborish yoki USB qurilmalariga uzatish to'g'risida ma'lumot beradi	bo'limi, BXO/BXM Barcha tarkibiy bo'linmalari
12	asosiy vositalar bilan bog'liq firibgarliklar	asosiy vositalarni Bankning vakolatli shaxslari kirish huquqiga ega bo'lgan maxsus ajratilgan xonalarda saqlash, ushbu binolarda signalizatsiya va qulflarni o'rnatish, Bankning javobgar xodimlari tomonidan asosiy vositalarni kelishi va sarflanishini hisobga olish, har yili ularni majburiy ravishda inventarizatsiyadan o'tkazish	Hududiy boshqarma Ma'muriy xo'jalik bo'limi, BXO/BXM Operatsion bo'limi
13	<u>xaridlar bo'yicha</u> firibgarliklar	“O'zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibiga muvofiq xaridlarni shaffof o'tkazish.	Hududiy boshqarma Xarid qilish komissiyasi, Buxgalteriya hisobi va nazorat tahlil bo'limi, Ma'muriy xo'jalik bo'limi
14	Xaridlar jarayonidan xarid kotibi tomonidan tender ishtirokchilarini dasturdan chiqarish	Xaridlar jarayonida kotib faoliyatini doimiy nazorat qilish.	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti, Xarid komissiyasi Raisi
15	Hisobotlarda aktivlar yoki daromadlarni oshirib ko'rsatish bilan bog'liq firibgarliklar	iABSda buxgalteriya yozuvlarini kiritish huquqiga ega bo'lmagan Bankning tarkibiy bo'linmasi tomonidan hisobotlar tayyorlash. Ichki va tashqi moliyaviy auditdan o'tkazish	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti, Ichki audit departamenti, Hududiy boshqarma Buxgalteriya hisobi va nazorat tahlil bo'limi

16	Mijoz ishtirokisiz bank kartalarini ochish va ular bilan bog'liq amaliyotlarni bajarish (SMS xabarnomani yoqish, mablag'larni tasarruf etish)	Bank kartalarini offline ochishda Face ID texnologiyalaridan foydalanish, online Bank kartalarini ochishda ONE ID orqali tasdiqlashdan o'tkazish	BXO/BXM Operatsion bo'limi
17	Xodimlarning o'z KPI ko'rsatkichlarini sun'iy oshirish	KPI kartasidagi sun'iy oshirish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilib, o'zgartirishlar kiritib borish	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti, Hududiy boshqarma Buxgalteriya hisobi va nazorat tahlil bo'limi
18	CRMda skoring baholash tizimi ko'rsatkichlariga ruxsatsiz o'zgartirish kiritish	Skoring tizimida ko'rsatkichlarning o'zgartirilishi bo'yicha ma'lumotlarni Komplayens-nazorat departamentiga taqdim etib borish.	Risk menejment departamenti
19	Kredit tarixini olish uchun so'rovlar yuborish tizimini (Niki,Asoki) yopib qo'yish	Kredit tarixini olish uchun so'rovlar yuborish tizimiga kim tomonidan o'zgartirishlar kiritilganligi bo'yicha ma'lumotlarni Komplayens-nazorat departamentiga taqdim etib borish.	Kreditlarni boshqarish departamenti

37. Tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib, Bank (kamida) quyidagi tashqi firibgarliklar, ularni oldini olishga mas'ul tarkibiy bo'linmalarni belgilaydi:

№	Firibgarlik usuli	Profilaktika choralari	Mas'ul tarkibiy bo'linma
1	Bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida yuridik va jismoniy shaxslarning hujjatlarini qalbakilashtirish	Bank xodimlari Bank operatsiyalarini amalga oshirayotganda barcha hujjatlarning haqiqiylikini, Bankning Ichki me'yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda to'g'ri tekshirishlari shart; Mijozlarga xizmat ko'rsatish xonalarida (oynalarida) videokuzatuv kameralarining	Hududiy boshqarma Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish bo'limi BXO/BXM Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi, Operatsion bo'limi

		mavjudligi va ularning ishlashini ta'minlash	
2	Bank tomonidan talab qilinadigan hujjatlarni taqdim etishda hujjatlarni (imzo, muhr, ma'lumotlar) qalbakilashtirish	Bank xodimlari Bank operatsiyalarini amalga oshirayotganda barcha hujjatlarning haqiqiylikini, Bankning Ichki me'yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda to'g'ri tekshirishlari shart. Agar zarur bo'lsa, Yuridik departament, Risk menejment departamenti yoki Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentidan maslahat so'rash lozim.	Hududiy boshqarma Kreditlarni boshqarish bo'limi BXO/BXM Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi, Operatsion bo'limi
3	qalbaki banknotalarni o'tkazish	qalbaki banknotalarni aniqlash uchun faqat belgilangan detektorli nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish, barcha qabul qilingan banknotalarni haqiqiylikini tekshirish, kassir bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma imzolash, naqd pul muomalasi va kassa xizmatlari va chakana operatsiyalari bo'limi xodimlarini qalbaki pul banknotalarini aniqlashga o'rgatish; Mijozlarga xizmat ko'rsatish xonalarida (oynalarida) videokuzatuv kameralarining mavjudligi va ularning ishlashini ta'minlash.	Hududiy boshqarma Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish bo'limi, BXO/BXM Operatsion bo'limi
4	chekdagi summaga nisbatan mijozning kartasidan ko'proq miqdorda mablag' yechib olish	Bank kartasi foydalanuvchilariga kartadan yechib olingan summani chek yordamida tekshirish zarurligi to'g'risida muntazam tushuntirishlar berish, plastik kartochkadan mablag'lar yechilgani bo'yicha mijozlarga avtomatik ravishda xabar yuborish.	BXO/BXM Operatsion bo'limi

5	qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan belgilangan nafaqalar, kompensatsiyalar, subsidiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni olishda bila turib yolg'on va (yoki) noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek ushbu to'lovlarning to'xtatilishiga olib keladigan faktlar haqida sukut saqlash yo'li bilan pul mablag'larini o'zlashtirish .	davlat organlari ma'lumotlar bazalari bilan Bank tizimini integratsiya qilish, ochiq manbalar orqali ma'lumotlarni tekshirish	BXO/BXM Operatsion bo'limi
6	Mijozning shaxsiy kabinetiga noqonuniy kirish/buzish yoki mobil va internet ilovalari orqali mijozning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish yo'li bilan mijozlar hisob raqamlaridan pul mablag'larini noqonuniy olib qo'yish, kredit rasmiylashtirish, kredit va debet kartalaridan to'lovlarni amalga oshirish.	Bankning rasmiy aloqa kanallari orqali Bank mijozlarini muntazam ravishda xabardor qilish, shuningdek, plastik kartani chiqarish, shaxsiy hisob raqamini ochish, foydalanish va himoya qilish qoidalari bo'yicha ko'rsatmalar berish orqali Mobil banking va/yoki internet-banking xizmatlaridan foydalanishni ta'minlashda mijozni majburiy xabardor qilish. Shaxsiy ma'lumotlar; Bank axborot tizimlarini, shu jumladan mobil ilovalar va internet resurslarini xakerlik hujumlaridan, noqonuniy kirishdan himoya qilishni ta'minlash, "Firewall" tizimi, antivirus dasturlari uchun ko'p darajali parollar tizimini o'rnatish, Bank axborot tizimining xavfsizligini monitoring qilish va sinovdan o'tkazish, Bankning axborot tizimiga kirishni cheklash;	Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, Aloqa markazi
7	Skimming. Bankomatga o'rnatilgan skanerlash moslamasi - skimmer yordamida kartadagi	Bank xodimlari tomonidan bankomatlarda begona qurilmalar mavjudligini muntazam tekshirish, xavfsizlik	Hududiy boshqarma Emissiya va ekvayring bo'limi, Xavfsizlik va

	ma'lumotlar magnit chiziqlari orqali o'qiladi, ma'lumotlar yordamida soxta Bank kartalari yasaladi. Kartalarning PIN kodlari yaqin-atrofdagi videokamera yoki o'rnatilgan qo'shimcha (soxta) klaviatura yordamida aniqlanadi.	videokuzatuv kameralarining majburiy o'rnatish va ularning ishlashini ta'minlash.	axborotlarni muhofaza qilish bo'limi
8	Livan halqasi - bu metall yoki plastmassadan yasalgan tasma bo'lib, u bankomatning karta kiritiladigan joyini to'sib qo'yadi, bu esa har qanday kiritilgan kartani bankomatda qolib ketishiga olib keladi va karta egasi chiqib ketgandan so'ng firibgar tomonidan uni qaytarib olish imkonini beradi.	bankomat foydalanuvchilari uchun ehtiyot choralari to'g'risida - ogohlantirishlarni majburiy joylashtirish, Bank xodimlari tomonidan bankomatlarda begona qurilmalar mavjudligini muntazam tekshirish, xavfsizlik videokuzatuv kameralarining majburiy o'rnatish va ularning ishlashini ta'minlash.	Hududiy boshqarma Emissiya va ekvayring bo'limi, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish bo'limi
9	Fishing - uning mohiyati foydalanuvchining maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlashdir. ko'pincha Firibgarlar mijozga qo'ng'iroq qilib, o'zlarini Bank xodimi sifatida tanishtirib, noqonuniy mablag' yechilganligi yoki pul o'tkazmalari haqida xabar berishadi.	plastik kartalar bilan shubhali operatsiyalarni monitoring qilish; Bank ilovalarida (PSB mobile, JOYDA, Protssessing markazi 3D security moduli) avtomatik tarzda yaratilgan bir martalik koddan (OTP) foydalangan holda har bir xaridni Internet orqali tasdiqlash, mijozning masofaviy Bank xizmatlari akkauntiga kirish va muvaffaqiyatsiz urinishlar haqida SMS orqali xabardor qilib borish.	Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti Komplayens-nazorat departamenti, Risk menejment departamenti, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, Aloqa markazi
10	soxta sug'urta polislarini sotish	Bank har yili sug'urta kompaniyalarining risklarini baholaydi va o'zi ishlaydigan va Bankda hisob raqamlariga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalari ro'yxatini belgilaydi. Sug'urta polisini taqdim etishda Bank	Hududiy boshqarma Kreditlarni boshqarish bo'limi, BXO/BXM Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'limi, Chakana biznes bo'limi

		qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasining butun muddati davomida sug'urta summasini (to'lovini) to'lov tasdiqlovchi to'lov hujjatlarining nusxalarini taqdim etishni talab qiladi va amalga oshirilgan to'lovning haqiqiylikini tekshiradi.	
11	Shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash yoki Bankning ma'lumotlar bazalarini, operatsion va to'lov tizimlarini buzishga qaratilgan kompyuter xavfsizligi firibgarligi	Bankning axborot tizimlarini, shu jumladan mobil ilovalar va internet resurslarini xakerlik hujumlaridan, "Firewall" tizimini o'rnatish orqali noqonuniy kirishdan himoya qilish, yuqori darajali parol tizimidan foydalanish, virusga qarshi dasturlar, xavfsizlik monitoringi va Bank axborot tizimini testdan o'tkazish, Bankning axborot tizimiga kirishni cheklash.	Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti
12	Uyali aloqa yordamida firibgarlik - bu raqam egasining hisobvarag'idan to'g'ridan-to'g'ri pulni mijoz bilmagan holda yechib olish. Bunday firibgarliklar uyali aloqa operatorlarining o'zlari tomonidan, shuningdek aloqa operatorlariga aloqador bo'lmagan firibgarlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.	bankning rasmiy veb-saytlarida firibgarlik turlari, firibgarlikdan himoyalaniş usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy e'lon qilish; shaxsiy hisob raqam ochishda, plastik kartani chiqarishda, mobil banking va/yoki Internet-banking xizmatlariga kirishda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish qoidalarini bo'yicha, ko'rsatmalar berish orqali mijozni xabardor qilish.	Axborot xizmati, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, BXO/BXM Operatsion bo'limi
13	Uyali aloqadan foydalangan holda firibgarlik - abonentning o'zi ko'rsatilgan hisob raqamiga pul o'tkazadi yoki uni to'g'ridan-to'g'ri boshqa shaxslarga beradi yoki firibgarlar joyda ko'rsatgan	bankning rasmiy veb-saytlarida firibgarlik turlari, firibgarlikdan himoyalaniş usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy e'lon qilish; shaxsiy hisob raqam ochishda, plastik kartani chiqarishda, mobil banking va/yoki Internet-banking xizmatlariga kirishda	Axborot xizmati, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, BXO/BXM Operatsion bo'limi

	qoldiradi. Masalan, muammoga duch kelgan va zudlik bilan pulga muhtoj bo'lgan yaqin qarindoshi nomidan qo'ng'iroq amalga oshiriladi.	shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish qoidalarini bo'yicha, ko'rsatmalar berish orqali mijozni majburiy xabardor qilish.	
14	Shunday internet-do'konlari mavjudki ularda to'lov uchun Bankdan SMS orqali olingan bir martalik parolni (OPT) kiritish shart emas, firibgarlar tomonidan karta raqami, CVV kodi va kartaning amal qilish muddatini bilish kifoya qiladi.	bankning rasmiy veb-saytlarida firibgarlik turlari, firibgarlikdan himoyalangan usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; shaxsiy hisob raqam ochishda, plastik kartani emissiya qilishda, mobil banking va/yoki Internet-banking xizmatlariga kirishda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish qoidalarini bo'yicha, ko'rsatmalar berish orqali mijozni doimiy xabardor qilib borish.	Axborot xizmati, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, BXO/BXM Operatsion bo'limi
15	"Rekvizitlarni tekshirish" bu internet-firibgarlarining standart firibgarlik sxemasi bo'lib Bank xodimi nomidan qo'ng'iroq qilish orqali ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Plastik karta ma'lumotlariga (hisob raqami, PIN-kod, maxfiy so'z) aniqlik kiritish so'rovi mijozning pul mablag'larini yo'qotilishiga olib keladi. Qabul qilingan SMS aslida pul mablag'larini kartadan yechib olishga tasdiq kodi hisoblanadi. Firibgarlar tomonidan qo'lga kiritilgan CVV kod va kartani amal qilish muddati to'g'risidagi ma'lumotlar kartaning foydalanish muddati oxiriga qadar firibgarlar tomonidan	bankning rasmiy veb-saytlarida firibgarlik turlari, firibgarlikdan himoyalangan usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy e'lon qilish; hisob raqam ochishda, plastik kartani emissiya qilishda, mobil banking va/yoki Internet-banking xizmatlariga kirishda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish qoidalarini bo'yicha, ko'rsatmalar berish orqali mijozni doimiy xabardor qilish.	Axborot xizmati, Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, BXO/BXM Operatsion bo'limi

	foydalanishga imkon beradi.		
16	telefon, kompyuterga masofaviy xizmatlar tizimiga kirishda foydalaniladigan ma'lumotlar yoki karta ma'lumotlarini firibgarlarga yetkazadigan virusli dasturiy ta'minotlarni (Internet dasturlarni, ilovalarni) yuklab olish.	Bankning axborot tizimini, shu jumladan mobil ilovalar va internet resurslarini buzib kirish, noqonuniy kirishdan himoya qilishni ta'minlash, "Firewall" tizimini, Bankning ixtisoslashtirilgan dasturiy qurilmasi tomonidan yaratilgan yuqori darajali parollar tizimini, virusga qarshi dasturiy ta'minotni, xavfsizlik monitoringini o'rnatish, Bank axborot tizimlarini sinovdan o'tkazish, Bank axborot tizimidan foydalanishni cheklash; bankning rasmiy veb-saytlarida firibgarlik turlari, firibgarlikdan himoyalash usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy e'lon qilish; shaxsiy hisob raqam ochishda, plastik kartani chiqarishda, mobil banking va/yoki Internet-banking xizmatlariga kirishda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish qoidalarini bo'yicha, ko'rsatmalar berish orqali mijozni majburiy xabardor qilish.	Axborot xizmati, Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti Raqamli biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti, BXO/BXM Operatsion bo'limi
17	Tizim administratorlari tomonidan amalga oshirilgan firibgarliklar	Barcha administrator va dasturchilarni FUDO dasturi orqali nazoratga olish	Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti,

V. FIRIBGARLIKNI OLDINI OLISH

Bankdagi firibgarlikning oldini olish va o'z vaqtida aniqlash maqsadida :

38. kollegiallik tamoyiliga asosan qaror qabul qilinadi, qaror qabul qilishdagi vakolatlarining bir xodimda jamlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

39. Komplayens-nazorat departamenti, Risk menejment departamenti hamda Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti, Xodimlarni boshqarish departamenti bilan birgalikda aniqlangan firibgarlik holatlari yuzasidan Bankning tarkibiy

bo'linmalari xodimlari o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi bo'yicha Bank boshqaruviga takliflar berib boradi;

40. Mijoz to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlar qat'iy cheklangan bo'lib, faqatgina Bank xodimlariga o'z xizmat vazifalarini bajarish mobaynida foydalanishlariga ruxsat etiladi;

41. Bankning biznes jarayonlari maksimal darajada avtomatlashtiriladi;

42. ABS, Bankning axborot tizimi va ma'lumotlar bazalari, mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish kanallariga tashqaridan mumkin bo'lgan buzib kirishlarning oldini olish uchun kuchaytirilgan xavfsizlik choralari qo'llaniladi;

43. Bank tomonidan "Firewall" tizimidan foydalanish, Bankning ixtisoslashtirilgan dasturiy qurilmasi tomonidan yaratilgan yuqori darajali parollar tizimi, virusga qarshi dasturlar, muntazam xavfsizlik monitoringi va Bank axborot tizimini testdan o'tkazish;

44. yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish (mavjud mahsulotlar va xizmatlarga o'zgartirish kiritishda)da Komplayens-nazorat departamenti tomonidan firibgarlikni oldini olish bo'yicha biznes-jarayonlarga o'zgartirishlar kiritish choralari ko'riladi;

45. Komplayens-nazorat departamenti tomonidan har yili firibgarlik risklarini aniqlash, tashqi va ichki firibgarliklarning oldini olishni yo'llari, firibgarlik to'g'risida xabar berish aloqa kanallari, firibgarlik sodir etgan(sodir etadigan) shaxslar, shuningdek sodir etilgan firibgarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirish uchun javobgarlik oqibatlari bo'yicha Bank xodimlariga tushuntirishlar olib borish(treninglar o'tkazish), bundan tashqari Bankda firibgarlikka toqat qilmaslik tamoyilini shakllantirish.

46. Komplayens-nazorat departamenti, Kichik va o'rta biznes departamenti va Chakana biznes departamentlari bilan birgalikda Bank mijozlari o'rtasida shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlashning ahamiyati va mumkin bo'lgan firibgarlik usullari, Bank xodimlarining mijozlar bilan munosabatga kirishish qoidalari, firibgarlik holatlari to'g'risida xabar berish aloqa kanallari, sodir etilgan firibgarlik yoki firibgarlikni sodir etgan shaxslarni yashirish harakatlari uchun javobgarlik to'g'risida doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib boradi.

47. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti tomonidan bankomatlar, pul omborxonalari va mijozlar bilan muloqot qilish joylarini maksimal darajada videokuzatuvini ta'minlash;

48. Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti tomonidan doimiy ravishda Bankning axborot texnologiyalarining himoya tizimini sinovdan o'tkazib boriladi;

49. Yangi mahsulot va xizmatlarning axborot (ma'lumotlar) xavfsizligini ta'minlamasdan joriy etishga yo'l qo'yilmaydi, yangi mahsulotlar va xizmatlar joriy etilishidan oldin test sinovidan o'tkazilishiga yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqqan tarkibiy bo'linma mas'ul hisoblanadi;

50. Bank har yili asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va inventarlarni inventarizatsiya qiladi. Yillik inventarizatsiya qilishga Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti mas'ul hisoblanadi;

51. Bankda moddiy javobgar xodimlar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzish majburiydir. Moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzishga Xodimlarni boshqarish departamenti mas'ul hisoblanadi;

52. Bankning ma'lumotlar bazasi, axborot tizimlari, qo'riqlash, signalizatsiya va videokuzatuv tizimlari ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklash bo'yicha Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti mas'ul hisoblanadi;

53. Bank boshqaruvi tarkibiy bo'linmalar va hududlardagi BXM/BXO xodimlarining davriy rotatsiyasini amalga oshiradi;

54. Bankda xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan kontragentlarni tekshirish maqsadida tuzilgan ishchi guruh tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha tekshirish o'tkaziladi. Tekshiruv natijalari bo'yicha xulosa Komplayens-nazorat departamentiga taqdim etiladi. Komplayens-nazorat departamenti xulosada ko'rsatilgan ma'lumotlarni Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

55. Komplayens-nazorat departamentining Komplayens-nazorat departamenti Bankning boshqa bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni to'playdi va ularni umumlashtiradi.

56. Agar Bank xodimi bankning boshqa xodimi yoki kontragentining shubhali xatti-harakatini yoki firibgarlikda gumon qilinayotgan xatti-harakatlarini sezsa, u bu haqda darhol o'zining bevosita rahbarini xabardor qilishi shart.

57. Agar holatning mohiyati yoki vaziyat bunga imkon bermasa, u holda xodim bu haqda Komplayens-nazorat departamenti yoki Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentini 8-bandda keltirilgan aloqa kanallaridan foydalanib xabardor etishi mumkin.

58. Ushbu Tartibning 2-bobida ko'rsatilganidek, Komplayens-nazorat departamenti doimiy ravishda Bankda taqiqlangan operatsiyalarni amalga oshirish holatlari yoki xavf-xatarlari, shu jumladan kontragentlar yoki Bank xodimlari tomonidan firibgarlik holatlari to'g'risida fuqarolardan va Bank xodimlaridan kelib tushgan shikoyat va murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqadi.

59. Yuqorida ko'rsatilgan so'rovlarni ko'rib chiqish jarayonida Komplayens-nazorat departamenti zarur hollarda Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalarining bunday o'rganishni o'tkazish uchun zarur bo'lgan aniq bilimga ega xodimlarini jalb qilgan holda ichki o'rganishlar o'tkazadi.

60. O'rganish Bank farmoyishiga asosan ishchi guruh a'zolari va ularning vakolatlari ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

61. O'rganish natijalariga ko'ra, Komplayens-nazorat departamenti xodimlari firibgarlik holatini tasdiqlash yoki rad etish, asoslar, dalillar va firibgarlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar, firibgarlikni sodir etishda aybdor shaxslar, yetkazilgan zararning turlari va miqdori, zararni qoplash usullari, belgilangan javobgarlik choralari, bunday firibgarlik harakatlarining kelajakda takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobot tuzadilar (1-ilova).

62. Holatdan kelib chiqib Bank boshqaruvi ishni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

63. O'rganish jarayonida firibgarlik harakati mavjudligi yoki mavjud emasligi va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar hamda o'rganish natijalari to'g'risida (ushbu Tartibning 61-bandiga muvofiq) tuzilgan hisobot Komplayens-nazorat departamenti direktor tomonidan tegishli qarorlar va choralarni qabul qilish uchun Boshqaruv Raisiga taqdim etishi mumkin.

64. Komplayens-nazorat departamenti barcha kelib tushgan murojaatlar, ko'rilgan chora-tadbirlar hisobini yuritadi va har chorakda Tavakkalchiliklarni boshqarish va Komplayens-nazorat qo'mitasi va Kuzatuv Kengashiga jamlanma ma'lumotlarni taqdim etadi.

65. Firibgarlikning oldini olish, firibgarlikni aniqlash yoki oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Komplayens-nazorat departamenti, Risk menejment departamenti, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti hamda Ichki audit departamentlari o'zaro hamkorlik qiladilar;

66. Xodimlarni boshqarish departamenti va Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti nomzodlarning shaxsini (reputatsiyasi) va sudlanmaganlik holatini aniqlik bo'yicha tekshiradi.

VI. DAVLAT ORGANLARI BILAN O'ZARO ALOQALAR

67. Vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda (masalan, litsenziyalar berishda, ixtisoslashtirilgan kengashlarda qatnashishda, turli hujjatlar, obyektlar va boshqalarni rasmiylashtirishda) Bank hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi va agar kerak bo'lsa, ushbu davlat organlari tomonidan chiqarilgan salbiy va boshqa xulosalarning sabablari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot talab qiladi.

68. Bank firibgarlikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

69. Komplayens-nazorat departamenti shu faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamkorlik qiladi, shuningdek ushbu Tartibda nazarda tutilgan firibgarlik faktlari bo'yicha o'rganishlar o'tkazadi, ushbu Tartib va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi doirasida davlat organlarining so'roviga ko'ra axborot beradi, firibgarlikka qarshi kurashish faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan mazkur Tartib va qonun hujjatlari doirasida hamkorlikning boshqa turlarini amalga oshiradi.

VII. HISOBOTLARNI TAQDIM ETISH SHAKLLARI VA MUDDATLARI

70. Tartibga muvofiq Komplayens-nazorat departamenti quyidagi hisobot turlarini tayyorlaydi:

Komplayens-nazorat departamentining **yillik hisoboti** - Bankdagi firibgarlik xavfini boshqarish tizimi, shu jumladan firibgarlik xavfini baholash natijalari, firibgarlikning oldini olishga qaratilgan nazoratlarning yetariligi va samaradorligini baholash to'g'risidagi bandlarni o'z ichiga oladi. Yillik hisobot Tavakkalchiliklarni boshqarish va Komplayens-nazorat qo'mitasiga ko'rib chiqish va Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi;

Komplayens-nazorat departamentining **choraklik hisoboti** - Bankda firibgarlik xavfini boshqarish tizimi, shu jumladan fuqarolar va Bank xodimlarining konsolidatsiyalangan asosda firibgarlik faoliyati to'g'risidagi murojaatlari, o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha firibgarlik faktlari, firibgarlikning takrorlanishining oldini olish bo'yicha Bank tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Choraklik hisobot Tavakkalchiliklarni boshqarish va Komplayens-nazorat qo'mitasiga ko'rib chiqish va Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi;

ushbu Tartibning 61-bandiga muvofiq o'tkazilgan o'rganish davomida firibgarlik harakati mavjudligi yoki yo'qligi, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar va o'rganish natijalari to'g'risidagi hisobot ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Boshqaruv Raisiga taqdim etiladi.

71. Komplayens-nazorat departamentining yillik hisobotidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan yillik hisobotga kiritilishi kerak.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

72. Mazkur Tartibda nazarda tutilmagan tartib va qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, me'yoriy hujjatlari hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

73. Mazkur Tartib talablarini buzgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar

74. Ichki audit departamenti tomonidan rejali audit tekshiruvlarida ushbu Tartib talablariga rioya qilinishi o'rganib boriladi.

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
firibgarlikka qarshi kurashish Tartibiga 1-ilova**

O’RGANISH HISOBOTI

1. Asosi: Boshqaruv Raisining buyrug‘i (sana va raqam)

2. Ishchi guruh tarkibi:

Ishchi guruh rahbari _____

(lavozimi, to'liq ismi)

Ishchi guruh a'zolari

(lavozimi, to'liq ismi)

(lavozimi, to'liq ismi)

(lavozimi, to'liq ismi)

(lavozimi, to'liq ismi)

3. Ichki o’rganish o'tkazish muddati:

4. Ichki o’rganish o’tkazish uchun asoslar (ichki o’rganish o’tkazish uchun asoslarning qisqacha tavsifi va ichki o’rganish o’tkazish uchun sabab bo’lgan ma’lumotlar manbalari (elektron pochta manzili, Telegram bot, ishonch telefoni orqali olingan murojaat)

Ariza beruvchi to’g’risidagi ma’lumotlar (jismoniy yoki yuridik shaxs, bog’lanish ma’lumotlari):

5. Ichki o’rganish davomida aniqlangan faktlarning tavsifi, firibgarlikni sodir etishga imkon bergan sabablar va holatlar, shuningdek, dalillar bazasi ro’yxati:

Xulosa:

firibgarlik turi (ichki/tashqi), uni sodir etish usuli va uni sodir etgan shaxslar ko'rsatilgan holda firibgarlikning mavjudligi yoki (yo'qligi) to'g'risidagi xulosa;

firibgarlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan yoki firibgarlik sodir etgan shaxslarni yashirgan shaxslar tomonidan buzilgan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki Bankning ichki me'yoriy hujjatlari;

Bankka va/yoki boshqa shaxslarga (agar mavjud bo'lsa) yetkazilgan zararining xarakteri va miqdori, uni qoplash usullari;

firibgarlik sodir etganlikda ayblangan yoki firibgarlik sodir etgan shaxslarni yashirganlikda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan taklif qilingan javobgarlik choralari.

7. Takliflar:

firibgarlik yoki firibgarlik sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha taklif qilingan chora-tadbirlar;

bunday firibgarlik holatlari takrorlanishining oldini olishga qaratilgan nazorat tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar;

Ishchi guruh a'zolarining imzolari:

(ismi, lavozimi) (imzo) (sana)

(ismi, lavozimi) (imzo) (sana)

(ismi, lavozimi) (imzo) (sana)

(ismi, lavozimi) (imzo) (sana)

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
firibgarlikka qarshi kurashish Tartibiga 2-ilova**

Bankdagi firibgarlik faoliyati to'g'risidagi murojaatlarni qabul qilish reyestri

№	Murojaat sanasi	Aloqa kanallari	F.I.SH (arizani qabul qilgan xodim)	Ariza egasining ma'lumotlar (jismoniy yoki yuridik shaxs)	Murojaat mazmuni	Murojaat yo‘nalishi	Kelib tushgan arizani ko'rib chiqish uchun mas'ul xodim